



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 76-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI..... 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

**SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA
YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AMALIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI****Raxmatov Otabek Urinbosarovich**Navoiy davlat universiteti Sport faoliyati turlari kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)Email: rahmatov.otabek@inbox.ru

Tel: +99897 776-08-82

ORCID: <https://orsid.org/0000-0003-1288-3042>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda bo'lajak mutaxassislarning amaliy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus va introspeksiya komponentlari mazmunan asoslab berilgan. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan hamda an'anaviy va elektron ta'lim integratsiyasiga tayangan innovatsion texnologiyalarni qo'llash algoritmlari takomillashtirilgan. Maqolada shuningdek, amaliy kompetentlikning shakllanish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlash bo'yicha ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, yondashuvlar va amaliy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, kooperativ, yondashuv, kompetentlik, rivojlantirish, texnologiya, ta'lim, bilim, malaka, faoliyat, mutaxassis.

**THE ROLE OF PERSON-CENTERED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN
DEVELOPING PRACTICAL COMPETENCE IN TRAINING SPORTS ACTIVITY
SPECIALISTS****Rakhmatov Otabek Urinbosarovich**

Associate Professor, Department of Sports Activities

Navoi State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. This article analyzes the role and significance of person-centered educational technologies in the training of sports activity specialists. The study conceptually substantiates the personal, social, general professional, specialized, and introspection components that contribute to the development of future specialists' practical competence. In addition, a model for developing practical competence based on a person-centered educational approach has been proposed, along with improved algorithms for applying innovative technologies that integrate traditional and electronic learning. The article also presents scientific ideas, approaches, and practical recommendations for determining the criteria and indicators for assessing the level of practical competence from a scientific and pedagogical perspective.

Keywords: person, cooperative, approach, competence, development, technology, education, knowledge, qualification, activity, specialist.

KIRISH. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti shiddati bugun ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Mamlakatimizda joriy etilayotgan islohotlar, qaror va farmonlar ijrosi ilm-fan sohasining rivojlanishida davlat

boshqaruv tizimining ustuvor o'rnini hamda Yangi O'zbekistonning ilmiy salohiyatga tayanadigan taraqqiyot modelini qat'iy asoslab bermoqda.

Globallashuv davrida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanish jarayonlari ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda. Chunki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim har bir o'quvchi yoki talabaning individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, ularning mustaqil fikrlashi va vatanparvarlik ruhida kamol topishini ta'minlaydi. Shu bois, yoshlarni har tomonlama yetuk, ijodkor va vatanparvar shaxslar sifatida tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlariga alohida e'tibor qaratish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari bu — ta'lim jarayonida o'quvchi (yoki talaba) shaxsini markazga qo'ygan, uning individual qobiliyati, ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir.

Boshqacha aytganda, bu texnologiyalar har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish sur'ati va uslubini hisobga olib, uni faol, mustaqil, mas'uliyatli va ijodkor fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchi — yo'lboshchi va hamkor, o'quvchi esa — ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida har bir talabaning shaxsiy faolligi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda ularni hamkorlikda o'rganish faoliyatiga jalb etishga qaratilgan. Bunday yondashuvda talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali nafaqat o'quv materiallarini o'zlashtiradilar, balki bir-birining muvaffaqiyatiga hissa qo'shish, fikr almashish va o'zaro yordam tamoyillarini o'rganadilar.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida hamkorlik — o'zaro hurmat, mas'uliyat, mustaqillik va o'z qobiliyatiga ishonchni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa har bir talabada shaxsiy qadr-qimmatni anglash, ijodiy fikrlash va o'zini rivojlantirishga intilish kabi fazilatlarining qaror topishiga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi talabalarning o'quv jarayonida o'z shaxsiy mas'uliyatini anglash, mustaqil va ongli ravishda aqliy mehnat qilishga undaydi. Bunday yondashuvda har bir talaba o'zining individual imkoniyatlari va o'rganish uslubiga tayangan holda o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga intiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim natijasida o'quv materiallari chuqur o'zlashtiriladi, talabaning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki motivatsiyasi ortadi hamda o'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[1], 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[2], 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3] farmonlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[4], 2021 yil 25 yanvardagi PQ-

4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"[5] qarorlari biz mushohada va mulohaza yuritmoqchi bo'lgan sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining amaliy kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati masalalariga huquqiy asos bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayoni oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalarning individual imkoniyatlarini, qiziqishlari va kasbiy yo'nalishini inobatga olgan holda, ularni real ta'lim muhiti hamda amaliy faoliyat sharoitida o'z malakasini muntazam oshirib borishga yo'naltiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishni, o'z-o'zini takomillashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv natijasida talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'lib, o'z kasbiy salohiyatini amaliy jihatdan rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitga ega bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda turli interfaol tashkiliy shakllardan — "talaba-auditoriya", "talaba-kichik guruh", "talaba-katta guruh", "o'qituvchi-talaba", "talaba-talaba" (juftlikda ishlash), "kichik guruh-kichik guruh" va "kichik guruh-auditoriya" kabi o'zaro hamkorlik shakllaridan samarali foydalaniladi. Bunday yondashuv o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida har bir talaba bilan individual muloqot o'rnatishi, ularning faol ishtirokini rag'batlantirishi va shaxsiy salohiyatini ochib berishiga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim — bu o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik muhitini yaratgan holda, har bir talabaning o'ziga xos fikrlashi, ijodkorligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantiruvchi interfaol o'qitish jarayonidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'qituvchining vazifasi - darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta'limning maqsadlaridan biridir. [6, 123]

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda ilg'or ta'lim tizimlari hamda korporatsiyalar o'z xodimlarini zamonaviy bilimlar asosida o'qitish, ularning malakasini oshirish va professional rivojlanishiga sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari inson resurslarini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida "Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)" yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar o'z kasbiy salohiyatini oshirish, sport turlarini ommalashtirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmoqdalar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi ularning individual qobiliyatlarini aniqlash, ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini mustahkamlashga xizmat qilib, yosh mutaxassislarning professional shakllanish jarayonini uzluksiz takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Jismoniy tarbiya yuzasidan ishlab chiqilgan dasturlar va darsliklar o'zgarmaydigan narsa emas. Ularning mundariyasi hamisha o'zgarib takomillashib boradi. Dasturlarni

takomillashtirish uchun jismoniy tarbiya yuzasidan olib boriladigan ilg'or ish tajribalari asos bo'ladi, bu ilg'or ish tajribalarini jismoniy tarbiya, pedagogika, ilmiy-tadqiqot va o'quv institutlari, shuningdek, amaliyotchilar – o'qituvchilar va murabbiylar muntazam ravishda o'rganib, umumlashtira boradilar. Jismoniy tarbiya yuzasidan qilingan ishlarning natijalari ilmiy jihatdan asoslangan normativlar tizimi - maktabgacha bo'lgan bolalar uchun tuzilgan dastur talablaridan boshlab to kattalar uchun tuzilgan dastur talablarigacha, malakali sportchilar uchun sport klassifikatsiyasiga qadar izchillik bilan hamisha ortib borayotgan talablarga muvofiq hisobga olinadi va baholanadi [7, 32]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayoni ularning amaliy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy mahoratini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida sport sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi talabalarning individual rivojlanish trayektoriyalarini hisobga olgan holda ularni amaliy-kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, uzluksiz ta'lim jarayonida informal ta'lim shakllarini qo'llash, o'qitishning samarali metodik ta'minotini yaratish va uni ta'lim amaliyotiga joriy etishga alohida e'tibor qaratadi.

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda:

- o'qitishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali talabaning shaxsiy qobiliyati, ehtiyoji va o'zlashtirish imkoniyatlariga mos ta'lim muhiti yaratish;
- talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish;
- individual ta'lim trayektoriyasiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish;
- shaxsning amaliy-kasbiy faolligini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi yo'nalishlar nazarda tutilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish, talaba shaxsining imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos individual rivojlanish yo'lini yaratishga qaratilgan. Bu texnologiyalar talabaning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, o'zini anglash va o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlari quyidagi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi: o'zaro fikr almashish, tahliliy suhbat va munozaralar o'tkazish, sport mashg'ulotlarida individual va jamoaviy amaliy topshiriqlarni bajarish, natijalarni taqqoslash va o'z ustida ishlashni tahlil qilish.

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus va introspektiv komponentlarini aniqlash;

- individual rivojlanish trayektoriyasiga asoslangan amaliy kompetentlikni shakllantirish modelini ishlab chiqish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va informal o'qitish shakllarining integratsiyasi orqali amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;
- an'anaviy va elektron ta'lim imkoniyatlarini uyg'unlashtirgan holda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish algoritmini ishlab chiqish;
- shaxsga yo'naltirilgan o'qitish sharoitida amaliy kompetentlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.

Ushbu vazifalarga asoslanib, quyidagi ilmiy qarashlar ilgari suriladi:

Birinchidan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirish talabning kasbiy faoliyatni anglash, reflektiv fikrlash, o'z imkoniyatlarini baholash va intellektual o'sish darajasini uyg'un rivojlantirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari yordamida bo'lajak sport mutaxassislarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi individual modelni yaratish, uni real ta'limiy muhitga moslashtirish zarur.

Uchinchidan, ta'limning formal va informal shakllarini integratsiya qilish orqali jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida individual yondashuvni amalga oshirish, bu orqali talabning mustaqil o'qish va amaliy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

To'rtinchidan, amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini talaba va o'qituvchi o'rtasidagi samarali pedagogik aloqalar asosida takomillashtirish, bu jarayonda qayta aloqa mexanizmlarini faol qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, amaliy kompetentlikni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari shaxsning rivojlanish darajalarini (reproduktiv, talqiniy, ijodiy, akme bosqichlarini) o'z ichiga olgan individual ta'lim trayektoriyasi asosida takomillashtiriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning maqsadi – talabning kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonida o'z shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishiga sharoit yaratish, uning kasbiy va pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish, o'zini o'zi anglash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir.

Bunda o'qituvchi talabning individual o'sish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlaydi, ilg'or innovatsion texnologiyalarni, interaktiv metodlarni, shuningdek davlat ta'lim standartlari va sohaga oid qonunchilik talablari asosida talabning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- talabning kasbiy bilim va malakalarini mustaqil o'zlashtirish imkonini yaratadi;
- o'quv topshiriqlarini individual darajada bajarish orqali talabning o'z qobiliyatini namoyon etishiga sharoit yaratadi;
- ta'lim jarayoniga motivatsiya, ishtiyoq va ijodkorlikni olib kiradi;
- talabning shaxsiy fikrini, dunyoqarashini va reflektiv tahlil qobiliyatini rivojlantiradi;
- o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama o'zaro ta'sir va axborot almashuv samaradorligini oshiradi;
- talabning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonini shaxsiy yondashuv asosida yo'lga qo'yadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi mashg'ulot turlari quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- individual intervyu va refleksiv suhbatlar — talabanning fikrini, his-tuyg'usini va kasbiy o'sish yo'lini anglash uchun;
- muammoli tahlil va davra suhbatlari — mustaqil fikrlash va jamoaviy muloqotni shakllantirish uchun;
- shaxsiy rivojlanish rejalari va baholash trayektoriyalari — talabanning o'z ustida ishlash jarayonini kuzatish va rivojlantirish uchun;
- ijodiy loyihalar va amaliy topshiriqlar — nazariy bilimlarni real sport amaliyotiga tatbiq etish uchun;
- o'zaro fikr almashish va savol-javob sessiyalari — o'quv jarayonida o'zaro tajriba almashish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish oliy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik, mas'uliyat, fikr almashish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, talabalarning kasbiy faolligi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati — kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar, mexanizmlar va metodik tavsiyalarni aniqlab berishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati — ishlab chiqilgan ilmiy-metodik yondashuv va tavsiyalarni oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga joriy etish orqali bo'lajak sport mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi: ehtiyojlarni o'rganish va tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, yo'naltirish, o'zaro aloqa o'rnatish, baholash va tahlil qilish hamda takomillashtirish. Ushbu bosqichlar asosida kooperativ yondashuvga tayangan holda uzluksiz kasbiy rivojlantirish algoritmini shakllantirish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy xulosalarga tayanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- oliy ta'lim tizimida o'qiyotgan bo'lajak sport mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan metodik ta'minotni kuchaytirish;
- kooperativ yondashuv asosida ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda uchraydigan psixologik to'siqlarni bartaraf etish;
- talabalarning psixologik holati va aqliy salohiyatini hisobga olgan holda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish;
- talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat, o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni mustahkamlash orqali ularning kasbiy faolligini oshirish.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori.
6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet.
7. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi. Darslik. T.: "ITA-PRESS", 2014. 296 bet

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com